

## KO'K TURK TILIDA FE'L KATEGORIYALARINING TIZIMI VA IFODALANISHI

Abdusamatova Anora Umarboy qizi

TOSHDO'TAU 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20696105>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ko'k turk bitiklarida fe'l kategoriyalarining tizimi va ularning ifodalanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda zamon, mayl, shaxs-son, nisbat hamda fe'lning vazifa shakllari qadimgi turkiy til materiallari asosida tahlil qilinib, ularning grammatik ko'rsatkichlari va funksional xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, Ko'k turk bitiklaridagi fe'l kategoriyalarining hozirgi o'zbek tili bilan o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy-tarixiy aspektda baholangan. Tadqiqot natijalari qadimgi turkiy tilning morfologik tizimini chuqurroq anglash hamda turkiy tillar tarixiy grammatikasini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ko'k turk tili, Ko'k turk bitiklari, fe'l kategoriyalari, zamon kategoriyasi, mayl kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi, vazifa shakllari, qadimgi turkiy til, tarixiy grammatika.

**Abstract.** This article examines the system of verb categories and their means of expression in the Old Turkic (Kök Türk) inscriptions. The study analyzes the categories of tense, mood, person-number, voice, and verbal functional forms on the basis of Old Turkic linguistic data, highlighting their grammatical markers and functional characteristics. In addition, the similarities and differences between the verb categories attested in the Kök Türk inscriptions and those of modern Uzbek are evaluated from a comparative-historical perspective. The findings contribute to a deeper understanding of the morphological structure of Old Turkic and provide valuable material for the study of the historical grammar of Turkic languages.

**Keywords:** Kök Türk language, Kök Türk inscriptions, verb categories, tense category, mood category, person-number category, voice category, verbal functional forms, Old Turkic, historical grammar.

Fe'l har bir tilda muhim ahamiyat kasb etganidek ko'k turk yozuvida ham fe'lning o'rni beqiyosdir. Fe'l asosan kesim vazifasini bajarib kelganligi uchun va kesimsiz gap shakllanmagani sababli fe'llarni o'rganish muhim omil sanaladi. Fe'l boshqa so'z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe'l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o'rinni egallaydi, gap strukturasi belgilaydi, uning qanday ma'noli so'zlardan tarkib topishini bildirish imkoniga ham ega bo'ladi<sup>1</sup>.

Eski ko'k turk tilida fe'l qanday kategoriyalarga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga qadar deyarli u o'zgarishsiz saqlanib qolgan, faqat qo'shimchalarida farqlanishi mumkin. Fe'l kategoriyalari deganda zamon shakllari, shaxs-son shakllari, nisbat va mayl shakllari tushuniladi.

Har bir bitiktoshda ushbu kategoriyalar o'ziga xos tarzda shakllantirilgan.

Ko'k turk bitiklarida zamon kategoriyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'tgan zamon shakllari e'tiborga molikdir. Chunki bitiklardagi deyarli 85-90 foiz fe'llar o'tgan zamonda shakllantirilgan. Ushbu bitiktoshda zamon shakllarini qo'llaganimizda hozirgi turk tilidagi kabi moslashinuv bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni turk tilida zamon shakllarini asosga qo'shganimizda oldingi unliga yoki undoshga qarab qo'shimchalarning moslashinuvi kuzatiladi.

Masalan, ho'slanmak fe'li *ho'slandim, ho'slandin, ho'slandi, ho'slandik, ho'slandiniz, ho'slandilar* kabi unilar moslashinuvi yuzaga kelsa, git fe'lida esa *gittim, gittin, gitti, gittik*,

<sup>1</sup> Abdushukurov. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 2019

*gittiniz, gittiler* kabi fe’lda esa unlilar va undoshlar moslashinuvi yuzaga keladi. Ushbu yodgorliklarda ham aynan shunday singarmonizmlarni uchratamiz. B. Abdushukurov o’zining “Qadimgi turkiy til” nomli kitobida ushbu jarayonni quyidagi misollar bilan yoritib bergan.

1.1-jadval.

**O’tgan, hozirgi, kelasi zamon qo’shimchalarining 3 ta shaxsda tuslanishi**

	Birlik (o’tgan zamon)	Ko’plik(o’tgan zamon)
I shaxs	qiltim	qiltimiz
II shaxs	Kiltin	Qiltinjiz
III shaxs	qilti	Qilti
	Birlik(hozirgi zamon)	Ko’plik(hozirgi zamon)
I shaxs	Barurman	Barurmiz
II shaxs	barursan	Barursiz
III shaxs	barur	Barur
	Birlik(kelasi zamon)	Ko’plik(kelasi zamon)
I shaxs	Barğum	Barğumiz
II shaxs	Barğun	Barğunjiz
III shaxs	Barğusi	Barğusi

Zamon shakllari ish-harakatning qachon bajarilganligiga ishor qilib keladi va ular hozirgi zamonga nisbatan olinadi. Ya’ni ish-harakat hozirdan oldin bajarilgan bo’lsa o’tgan zamon, hali ish-harakat bajarilmagan bo’lsa kelasi zamon va ish-harakat ayni paytda bajarilayotgan bo’lsa hozirgi zamon bo’ladi. O’tgan zamon shakli bugungi kundagi o’tgan zamon qo’shimchalari bilan ayni shaklda uchrasa ham kelasi zamon va hozirgi zamon biroz farq qiladi. Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlar “O’zbek tili tarixi” kitobida fe’l zamon kategoriyasiga alohida to’xtalib o’tgan va qo’shimchalarning inkor shakllarini ham keltirib o’tgan: O’tgan zamon fe’lining o’zga birligi *-di, di/ -ti, -ti* bo’lishsiz shakli *-madi, -madi* qo’shimchasi bilan hosil qilinadi. Ish-harakat kim tomonidan bajarilayotganiga ko’ra shaxs-son qo’shimchalari o’zgaradi. Hozirgi zamonda o’zga birligi fe’l o’zagiga *-ar*, bo’lishsiz shakli *-maz* qo’shimchasini qo’shish bilan hosil qilinadi. Kelasi zamon *-ğay, -qay, -gäy, -käy* affiksi bilan hosil qilinadi. Bo’lishsiz shakli *-ma, -mä* qo’shimchasini qo’shish bilan hosil qilinadi.<sup>2</sup> Ko’rib turganimizdek hozirgi zamon qo’shimchasi eski turkiy tilda *-ar* qo’shimchasi hisoblanib, u hozirgi o’zbek tilida kelasi zamon shaklini ifodalab keladi. Aynan shuning uchun hozirgi zamon va kelasi zamon shakllarida biroz chalkashliklar bo’lishi mumkin.

Buni yuqorida ta’kidlab o’tgan: Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlar “O’zbek tili tarixi” kitobida shunday ta’rif bergan. Bunday fe’l shakli hozirgi zamon uchun yoki ham hozirgi, ham kelasi zamon uchun mushtarak bo’ladi. Undosh bilan tugagan fe’llarda **a, ä** unli bilan tugagan fe’llarda **y** harfi orttiriladi. Ham hozirgi ham kelasi zamonga ehtimoli bo’lgan fe’llar misoli kelirmän, kelirbiz, kelirsän, kelirsiz, kelir, kelirlär.<sup>3</sup>

Yana e’tibor qaratishimiz kerak bo’lgan asosiy masalardan biri mayl kategoriyasidir.

<sup>2</sup> Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. O’zbek tili tarixi. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 139-140.

<sup>3</sup> Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. O’zbek tili tarixi. – Toshkent : O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 140.

Ushbu bitiktoshlar asosan hikoya mavzusida bo‘lganligi uchun xabar mayli yetkchilik qiladi. Mayl shakllari qadimgi turkiy yozuvdan farq qiladi va turli manbalarda turlicha izohlangan. Masalan, B. Abdushukurovning “Qadimgi turkiy til” kitobida bizga yetib kelgan yodgorliklarda 4 ta mayl( 1) buyruq mayli, 2) istak mayli, 3) shart mayli, 4) aniqlik mayli borligini ta’kidlasa, Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqovlar o‘zining “O‘zbek tili tarixi” nomli kitobida faqat buyruq va shart mayllariga “fe’llarning buyruq shakli va shart ko‘rsatkichi” kabi atamalar bilan izohlab ketgan. Shuningdek, Usmon Sanaqulov ham “O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari” kitobida buyruq va istak mayllariga alohida misollar orqali to‘xtalib o‘tgan. Bugungi kun bilan solishtirganda asosiy mayl shakllarimiz 3 ta. Ular: xabar mayli, buyruq-istak mayli va shart maylidir. B. Abdushukurov ta’kidlab o‘tgan aniqlik mayli hozirgi xabar mayliga to‘g‘ri keladi. Ushbu mayl shakllaridan asosan aniqlik mayliga alohida e’tibor qaratilgan, ushbu bitiktoshlardagi deyarli 95 foiz fe’l shakli aniqlik maylida hisoblanadi.

Ularning grammatik shakllari esa, bugungi kundagi qo‘shimchalardan faq qiladi.

2-jadval.

**Mayl kategoriyalari. Ularning birlik va ko‘plik shakli qadimgi turkiy tilda**

T/r	Mayl	Qo‘shimchalar(birlikda)	Qo‘shimchalar(ko‘plikda)
1	Xabar mayli	-	-
2	Istak mayli	-ayin/-eyin, -ay/-ey(y), -ayim/-eyim, -ğayin/-geyin, -ğayim/-geyim	-alı/-eli, -alıñ/-eliñ, -alim/-elim, -ğalım/-gelim, -ğayın/-geliñ, -ğalı/-geli, -alıq/-elik, -ayıq/-eyik, -ayıq/-eylik
3	Buyruq mayli	-ğil/-gil // -kil/-qıl, -ğın/-gín // -kin/-qın, -y(-y), nol ko‘rsatkich	-ıñ/-iñ, -ıñız/-iñiz, -ıñlar/-iñler, -ıñızlar/-iñizler
4	Shart mayli	-sun/-sün(-sın/-sin), -dik(-tik)	-sunlar/-sünler (-sınlar/-sinler), -dikler (-tikler) <sup>4</sup>

Xabar mayli o‘zbek tilida ham o‘ziga hech qanday qo‘shimcha olmasdan zamon va shaxs-son qo‘shimchalari bilan ifodalanib keladi, bu yodgorliklarda ham uning shakli aynan shundaydir. Ya’ni aniqlik maylida faqat zamon va shaxs-son shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, boshqa mayl shakllari qo‘shimchalari ham bir-biriga talaffuz va shakl jihatdan yaqin va o‘xshashdir. Ya’ni bugungi kunda buyruq mayli qo‘shimchalari *-gin, -sin, -kin, -qin, -g’in* kabi qo‘shimchalar va fe’lning hech qanday qo‘shimchalarsiz nol shakli bilan yasaladi. Qadimgi turkiy yozuvlarda ham *-ğil, -gil, -qil, -kil, -iñ, -iñ (lar)*. Buyruq fe’lning bosh shaklida bo‘ladi yoki unga maxsus qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi. Buyruq tinglovchiga yoki g‘oyibga bo‘ladi. G‘oyib buyrug‘i o‘zak-negiz oxiriga *-sın, -sin, -sun, -sün* qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan. Bu qo‘shimcha *-zun, -zün* shaklida ham qo‘llanilgan<sup>5</sup>.

Istak mayliga to‘xtaladigan bo‘lsak, u bugungi kunda *-ay, -y -aylik* qo‘shimchalari bilan ifodalanib keladi va qadimgi turkiy yozuvlarda ham istak maylini mana shu qo‘shimchalar hosil

<sup>4</sup> Abdurahmonov. G., Shukurov. Sh, Mahmudovlarning. Q. – O‘zbek tili tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 205.

<sup>5</sup> Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. – O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 135.

qilgan faqat biroz shaklida farq qiladi. Fe'l o'zagiga –*ayin, -äyin, -y'in, -yin, -alim, -älim, -lim, -lim, -zun, -zün, -sun, -sün* affikslarining qo'shilishi orqali fe'lning istak mayli hosil bo'ladi.

Bunday fe'l formalari istak, iltimos, xohish va boshqa shunga o'xshash ma'nolarni ifodalaydi.<sup>6</sup> Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlar esa istak maylini faqat istak emas buyruq-istak mayli deyish tarafdori ekanligini “O'zbek tili tarixi” asarida ko'rishimiz mumkin.

So'zlovchining buyruq-istagi fe'l negizga *-ayim, -äyim; -alim, -älim, aliq, äylik* qo'shimchalarini qo'shib yoziladi. Isatk maylini buyruq-istak shaklida keltirgan bo'lsa ham, buyruq maylini alohida yoritib o'tgan. B. Abdushukurov istak va buyruq mayllarini alohida-alohida o'rgangan bo'lsa-da, undan tashqari uni bir guruhda bo'lishi kerakligini aytib o'tishgan, shuningdek, G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudovlarning “O'zbek tili tarixiy grammatikasi” kitobida berilgan ma'lumotlarga ko'ra ular buyruq va istak mayli aynan bir guruhga kirishi kerakligini ta'kidlab o'tishgan. Fe'l mayllarining bu turiga kiruvchi shakllarining har birida ham istak, ham buyruq ma'nolari mavjud, shu bilan birga, bu shakllarning ayrimlari uchun (xususan I shaxs shakllari uchun) istak ma'nosi, ayrimlari uchun (xususan II shaxs shakllari uchun) buyruq ma'nosi birinchi o'rinda turadi. III shaxs shakllariga esa istak ma'nosi ham, buyruq ma'nosi ham xos. Shuning uchun, bu shakllarni bir guruhga, umumiy nom bilan “buyruq-istak mayli” deb atash ma'qul bo'ladi.<sup>7</sup>

Oxirgi mayl esa shart mayli hisoblanib, shart mayli ham ushbu bitiktoshlarda salmoqli o'rin egallagan. Shart maylini bugungi shakli faqat –sa qo'shimchasi bilan hosil qilinadi va bu maylda biror bir ish-harakat amalga oshishi uchun biror shart amalga oshirilishi talab qilib qo'yiladi. Ya'ni barcha –sa qo'shimchasini olgan so'zlar ham shart mayli vazifasini bajara olmaydi. Qadimgi turkiy tilda ham uning qo'shimchasi deyarli o'zgarmagan faqat shaklida biroz tafovut mavjud. *-sar, -sär* shakli runik, uyg'ur, moniy, brahma yozuv obidalarida uchraydi.

Uning qisqargan shakli *-sa, -sä* Turfon matnlarida *-sar, -sär* bilan parallel qo'llangan.<sup>8</sup>

*Bilgä To'nuquq qazğanmasar, ben yoq ertim ersür...* - Bilga To'nyuquq zafar qozonmaganda edi, men bo'lmasam edi (Ton, 59). Ushbu gapda uning bo'lishiga sabab qilib Bilga To'nyuquqni zafar qozonishini shart qilib qo'yyapti.

Fe'llarda shaxs-son kategoriyalariga to'xtaladigan bo'lsak, shaxs-son shakllarida umumiy hisobda olib qaraganda III shaxs birlik salmog'i yuqoridir. Shaxs-son fe'llarga qo'shib ish-harakat kim tomonidan bajarilganligiga ishora qiladi va unda 3 ta shaxs mavjud hisoblanib ularni birlik va ko'plik shakllari mavjuddir. B. Abdushukurov qadimgi turkiy tilda shaxs-sonning quyidagi qo'shimchalari borligini misollar yordamida ko'rsatib ketgan.

3-jadval.

**Qadimgi turkiy tilda shaxs-son kategoriyalari va ularning shakli**

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-män, -bän, -m	-büz, -biz, -müz, -miz, -muz, -müz, -maz, -müz
II shaxs	-sän -ŋ	-süz, -siz -ŋüz/lar/, -ŋiz/lär
III shaxs	-i, -i	-lar, -lär

<sup>6</sup>Abdushukurov. B. Qadimgi turkiy til. –T.. 2019.

<sup>7</sup> Abdurahmonov. G',Shukurov. Sh,Mahmudovlarning. Q. – O'zbek tili tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston fayasufllari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.

<sup>8</sup>Abdushukurov. B. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, 2019.

Shaxs-son shakllari o‘zbek tilidagi kabi asosan zamon qo‘shimchalaridan keyin qo‘llaniladi va ish-harakat bajaruvchisiga ishora qilib keladi. Yodgorliklarda yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek III shaxs salmog‘i yuqoriroqdir. Bunga asosiy sabab bitiklar hikoya tarzda yozilganligidir. Masalan, *kelti-keldi, temiş-depti, ögleşmiş-fikrlashibdi, taşiqmiş-chiqibdi, teriltiyig‘ildi, ölurti-o‘ldirildi, qazğanmasar-qozonmasa, tedi-dedi, tegti-hujum qildi, tegmiş-yetdi, sunguşdi-urush qildi* kabi so‘zlar Tunyuquq bitiktoshida *berur-beradi, qilinmiş-yaratilgan, baz qilmış-tobe qilgan, sökürmiş-cho‘kkaletgan, kergak bölmiş-vafot etgan, teg qilinmaduq- ish tutmagan, yituru idmiş-yo‘qotib yuborgan, qul bolti-qul bo‘ldi, bardı-bordı* kabi so‘zlar Kul Tigin bitigida *körti- boqdi, sançdi- sanchdi, erti-aynitdi, tirilti-tirik qoldi* kabi fe’llarimiz Bilga xoqon bitiktoshida uchraydi va III shaxsga ishora qiladi.

Fe’lda yana bir e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan kategoriya nisbat kategoriyasidir.

Qadimgi turkiy tilda ham hozirgi o‘zbek tilidagi kabi 5 ta nisbat bor. Ular: aniq nisbat, o‘zlik nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbatlardir. Ularning Grammatik shakli ham hozirgi tilimizga yaqin.

4-jadval.

**Nisbat kategoriyalarining qadimgi turkiy tildagi shakli**

T/r	Nisbat	Qo‘shimchalari
1	Aniq nisbat	-
2	O‘zlik nisbat	-in, -in, -un, -ün
3	Majhul nisbat	-l, -q(-k)
4	Birgalik nisbat	-š(-uš, -uš, -iš, iš)
5	Orttirma nisbat	-t, -ut, -üt, -it, -r, -ur, -ür, -ir, -ir, -tur, -tür, -dir, -dir, -dur, -dür, -gur, -gür <sup>9</sup>

Nisbat shakllari hozirgi o‘zbek tilida qanday vazifa bajarib kelsa qadimgi turkiy tilda ham aynan shunday vazifa bajarib keladi, ya’ni bajaruvchining ish-harakatga qay darajada aloqadorligini ifodalab keladi. Nisbatlarda asosan ish-harakat bajaruvchisi asosiy vazifa bajaradi.

O‘zlik nisbatda ish-harakat o‘zi tomonidan amalga oshiriladi, majhul nisbatda ish-harakat bajaruvchisi noma’lum bo‘ladi, birgalik nisbatda ish-harakat 2 tadan ko‘p shaxs tomonidan amalga oshiriladi, orttirma nisbatda esa ish-harakat kimgadir bajartiriladi o‘zi tomonidan amalga oshirilmaydi. Ko‘rib turganimizdek bajaruvchi nisbatda asosiy omil sifatida qaraladi.

Yodgorliklarda nisbat miqdoriga to‘xtaladigan bo‘lsak, aniq nisbat shakllari boshqalariga qaraganda ancha ko‘p ekanligini guvohi bo‘lamiz. Chunki ushbu yodgorliklar hikoya tarzda aytilgan va ish-harakat bajaruvchisi I shaxs yoki III shaxsga ishora qilib keladi doim, ammo aniq nisbatdan tashqari orttirma nisbat salmog‘i nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, *toqitdim-o‘rnattirdim, yaraturtim-yaratirdim, uruturtum- soldirdim, qağansiratdimiz- xoqonsizlantirdik, elsiretdimiz- davlatsizlantirdik* kabi so‘zlar Kul Tigini bitiktoshida *uduzuğma-uyushtiradigan olurti-o‘ldirdi, binture-mindirib, yanturtumiz-qaytardik, kelturmedim-ketirmadim*, kabi so‘zlar

Tunyuquq bitiktoshida *erti-aynitdi, içgertim-taslim ettirdim, ağıt(t)im- qaytardim, anta altim-qo‘lga kiritmoq* kabi fe’llar esa Bilga xoqon bitiktoshida uchraydi. Orttirma nisbat shakllari bitiklarda ta’sirchanlik darajasini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

Ushbu bitiktoshlarda eng kam qo‘llanilgan nisbat shakli esa birgalik nisbati hisoblanadi.

<sup>9</sup>Abdushukurov, B. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021. 65-66.

Bunga asosiy sabab esa yodgorliklarda shaxsiy qahramon yoki hukumdorning tarixi shakllantirilgan va birga qilingan harakat emas birgina hukumdorning kuchi va qudrati ko'rsatiladi. Birgalik nisbatda esa ish-harakat bajaruvchisi 2 ta va undan ortiq shaxsdan iborat bo'ladi. Bu esa qahramoning shaxsiy ulug'vorligiga putur yetkazadi. Ko'plik ma'nosi fe'llarda mavjud, ammo birgalik ma'nosi emas. Ya'ni "jang qildik", "tormor qildik", "o'ldirdik", "bosdik" kabi fe'llarda ko'plik ma'nosi mavjud, lekin I shaxs, ya'ni "men" ham mana shu ko'plikda bor. Birgalik nisbatda esa asosan III shaxs ko'plikda uchraydi. Masalan, "borishdi", "qilishdi". "o'ynashdi" kabi fe'llarda III shaxs yetakchilik qiladi. Shuning uchun ushbu bitiktoshlarda asosan aniq nisbat shaklidagi fe'llar yetakchilik qiladi.

Fe'ning vazifa shakllariga to'xtaladigan bo'lsak hozirgi o'zbek tilidagi kabi unda ham 4 ta vazifa shakli mavjud. ular: sof fel, harakat nomi, sifatdosh ravishdoshlardir. Ularning vazifasi faqat kesim vazifasini bajaradigan fe'lga boshqa boshqa sintaktik vazifalarni ham yuklashdir.

Ya'ni harakat nomi shakli bilan fe'lga to'ldiruvchi va ega vazifalarini yuklaydi, sifatdosh shakli bilan aniqlovchi vazifasini yuklaydi, ravishdosh shakli bilan esa hol vazifasini yuklaydi, sof fe'lda esa kesim vazifasida qolaveradi. Harakat ma'nosining mavjudligi, bo'lishsiz shaklining -ma/ -mä affiksi bilan hosil bo'lishi, fe'l darajalari ko'rsatkichlarining mavjudligi, zamon shakllarini hosil qilishda ishtirok etishi va shu kabilar fe'ning funksional shakllaridagi fe'llik belgilarini tashkil etadi. Kelishik, egalik affikslarini qabul qilishi va gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi yoki hol vazifasida ham kela olishi bu shakllarning boshqa so'z turkumlariga grammatik va funksional yaqinligini ko'rsatadi.<sup>10</sup> Ushbu yodgorliklarda eng ko'p uchraydigan vazifa shakli esa sof fe'l hisoblanadi. Ularning grammatik shakllari esa hozirgi o'zbek tilidagi shakllaridan farq qiladi.

*5-jadval.*

**Fe'ning vazifa shakllari va uning qadimgi turkiy tildagi shakli**

T/r	Fe'ning vazifa shakllari	Qo'shimchalari
1	Sof fe'l	-
2	Harakat nomi	-š(-iš, -iš, -uš, -üş), -liq, -lik, -luq, -lük
3	Sifatdosh	-dači, -däči/-tači, -täči, -quči/-küci/-ğuči, -güči, -si, -äsi, -qu, -kü/-ğu, -gü, -ğsaq, -gsäk, -ğli, -gli, -ma, -mä, -r/-ar, är/-ir, -ir/ -ur, -ür, -miş, -miš/ -mīs, -mis/ -muš, -müš/ -mus, -mūs, duq, dük/ -tuq, -tük, -ndī, -ndi, -qan, -ğan, -kän, -gän, -ğma, -gmä
4	Ravishdosh	-a, -ä, -u(-yu), -ü(-yü), -p/ -b, -pan, -pän/ -ban, -bän, -madīp, -mädīp, -qalī, kälī/ -ğalī, -gälī, -qinča, -kinčä/ -ğinčä, -ginčä/ -qunča, künčä/ -ğunča, -günčä, -matī, -madī, -mäti, -mädi/ -matīn, -madīn, -mätin, -mädin <sup>11</sup>

Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlarning "O'zbek tili tarixi" kitobida harkat nomi shaklini masdar shakl sifatida bergan va uni 2 ta turi bor ekanligini ta'kidlab o'tgan.

<sup>10</sup> G'. Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q. Mahmudovlarning. O'zbek tili tarixiy grammatikasi. – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2008, 172-bet

<sup>11</sup> Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. - O'zbek tili tarixi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2009, 131-135 bet

Bitiktoshlarda harakat nomi keng ko‘lamda qo‘llanilmagan va kamdan kam uchraydi.

Sifatdosh shakliga to‘xtaladigan bo‘lsak sifatdosh shakllari nisbatan ko‘proq uchraydi va sifatdoshning otlashib kelgan holatlari ham bor. Sifatdoshlarda boshqa vazifa shakllaridan farq qiladigan tomoni esa zamon ma‘nosi mavjud. hozirgi o‘zbek tilida o‘tgan zamon sifatdosh shakllari (o‘qigan qiz), hozirgi zamon sifatdosh shakllari(kelayotgan odam) va kelasi zamon sifatdosh shakllari (qilajak ishlar) mavjud. Lekin G‘. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudovlarning “O‘zbek tili tarixiy grammatikasi” asarida uni 2 turi bor ekanligini ta’kidlab o‘tgan, ya’ni unda o‘tgan zamon sifatdoshini bir guruh, hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlarini bir guruh ekanligini aytib o‘tgan. Ravishdosh shaklidagi fe‘l boshqa fe‘lga, asosan, tuslanuvchi fe‘lga bog‘lanib keladi va u‘zi bug‘langan fe‘ldan anglashilgan ish-harakatning belgisini, bajarilish holatini bildiradi. Shuning uchun ham ravishdosh shaklidagi fe‘l gapda hol vazifasida keladi va o‘zi bog‘lanib kelgan fe‘ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishidagi holat, sabab, payt, maqsad kabi ma‘nolarni ifodalaydi.<sup>12</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh, Mahmudov Q. O‘zbek tili tarixiy grammatikasi. – O‘zbekiston fayasufllari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2008
2. Abdushukurov. B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 2019.
3. Abdushukurov. B. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. – O‘zbek tili tarixi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2009.
5. Tuhtasinova M. L. *Budagov lug‘atida eski o‘zbekcha so‘zlarning qardosh turkiy tillar manbalari izohlanishi*. Scientific-Methodological Electronic Journal Til va adabiyot uz. 2023  
[https://www.academia.edu/108648972/L\\_Budagov\\_lug\\_atida\\_eski\\_o\\_zbekcha\\_so\\_zlarni ng\\_qardosh\\_turkiy\\_tillar\\_manbalari\\_izohlanishi](https://www.academia.edu/108648972/L_Budagov_lug_atida_eski_o_zbekcha_so_zlarni ng_qardosh_turkiy_tillar_manbalari_izohlanishi)
6. Tuhtasinova M. L.Z.*Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" asarining turkologiyadagi o‘rni*. Sciences\_Volume 4 | Issue 9 | 2023 ISSN:2181-138^Si0,967^Cite-Fac^. <https://cyberleninka.ru/article/n/l-z-budagovning-sravnitelnyy-slovar-turetsko-tatarskih-narechiy-asarining-turkologiyadagi-o-rni>
7. Tuhtasinova M. L. Z. *Budagov lug‘atida eski o‘zbekcha so‘zlarning sinonimlar yordamida izohlanishi*. "USA" International Scientific and Practical Conference Topical Issues of Science. 2023.

<sup>12</sup> G‘. Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q. Mahmudovlarning. O‘zbek tili tarixiy grammatikasi. – O‘zbekiston fayasufllari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2008, 186-bet